

IQLIM O'ZGARISHIGA MOSLASHUV (ADAPTATSIYA) SIYOSATINING EKOLOGIK-HUQUQIY JIHLTLARI

Botirova Odina Sanjar qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy huquq fakulteti, davlat-huquqiy

faoliyati yo'nalishi 1-kurs talabasi

e-mail: botirovaodina17@gmail.com

+998932952034

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19811021>

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada iqlim o'zgarishiga moslashuv (adaptatsiya) siyosatining ekologik-huquqiy jihatlari kompleks tarzda tahlil qilingan. Maqolada iqlim o'zgarishining atrof-muhitga salbiy ta'siri sharoitida davlatlarning moslashuv siyosatini shakllantirish zarurati asoslab berildi. Xususan, xalqaro iqlim huquqi normalari, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi R konvensiyasi va Parij kelishuvi doirasida belgilangan adaptatsiya majburiyatlari yoritiladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida iqlim o'zgarishiga moslashuv siyosatini huquqiy tartibga solish mexanizmlari, milliy strategiyalar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Muallif maqolada mavjud huquqiy mexanizmlarning samaradorligini baholab, iqlim xavflarini kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda huquqning o'rnini ochib berishga harakat qildi hamda tadqiqot davomida ekologik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va xulosalar ilgari surildi.

Kalit so'zlar: iqlim o'zgarishi, adaptatsiya, ekologik huquq, iqlim siyosati, barqaror rivojlanish, xalqaro ekologik huquq, huquqiy mexanizmlar

“ENVIRONMENTAL AND LEGAL ASPECTS OF CLIMATE CHANGE ADAPTATION POLICY”

Botirova Odina Sanjar qizi

Tashkent State University of Law Faculty of Public Law,

Public Legal Activity specialization,

1st-year student

E-mail: botirovaodina17@gmail.com

+998932952034

Annotation

This scientific article provides a comprehensive analysis of the environmental and legal aspects of climate change adaptation policy. The study substantiates the necessity for states to formulate and implement adaptation policies in the context of the negative impacts of climate change on the environment. In particular, the article examines international climate law norms, including adaptation obligations established within the RCIC of the United Nations RCIC Convention on Climate Change (UNFCCC) and the Paris Agreement. Furthermore, the legal regulation mechanisms of climate change adaptation policy in the Republic of Uzbekistan, as well as national strategies and regulatory legal acts, are analyzed. The author evaluates the effectiveness of existing legal mechanisms and seeks to reveal the role of law in reducing climate-related risks and ensuring environmental security. Based on the conducted research,

scientifically grounded conclusions and proposals aimed at improving environmental and legal regulation in the field of climate change adaptation are presented.

Keywords: climate change, adaptation, environmental law, climate policy, sustainable development, international environmental law, legal mechanisms.

“ЭКОЛОГИКО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ПОЛИТИКИ АДАПТАЦИИ К ИЗМЕНЕНИЮ КЛИМАТА”

Ботирова Одина Санджар кизи

Ташкентский государственный юридический университет

Факультет публичного права,

направление «Государственно-правовая деятельность»,

студентка 1 курса

E-mail: botirovaodina17@gmail.com. +998932952034

Аннотация

В данной научной статье комплексно анализируются эколого-правовые аспекты политики адаптации к изменению климата. В условиях негативного воздействия изменения климата на окружающую среду обосновывается необходимость формирования и реализации государствами эффективной политики адаптации. В частности, рассматриваются нормы международного климатического права, включая обязательства по адаптации, закреплённые в РКИК Рамочной конвенции Организации Объединённых Наций об изменении климата и Парижского соглашения. Кроме того, анализируются механизмы правового регулирования политики адаптации к изменению климата в Республике Узбекистан, национальные стратегии, а также нормативно-правовые акты в данной сфере. Автор оценивает эффективность существующих правовых механизмов, раскрывает роль права в снижении климатических рисков и обеспечении экологической безопасности, а также формулирует научно обоснованные выводы и предложения, направленные на совершенствование эколого-правового регулирования в сфере адаптации к изменению климата.

Ключевые слова: изменение климата, адаптация, экологическое право, климатическая политика, устойчивое развитие, международное экологическое право, правовые механизмы.

Kirish

Hozirgi globallashuv sharoitida iqlim o'zgarishi insoniyat oldida turgan eng jiddiy ekologik muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Iqlim tizimidagi o'zgarishlar tabiiy resurslardan foydalanish, ekologik muvozanat, aholi salomatligi va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli iqlim o'zgarishiga qarshi kurash nafaqat ekologik, balki huquqiy va institutsional mexanizmlarni takomillashtirishni ham taqozo etadi. So'nggi o'n yilliklarda global miqyosda kuzatilayotgan iqlim o'zgarishlari insoniyat oldidagi eng dolzarb muammolardan biriga aylandi. Yer yuzasida haroratning oshib borishi, muzliklarning erishi, quruqchilik va tabiiy ofatlar sonining ko'payishi bu jarayonning yaqqol oqibatlaridir. Ushbu o'zgarishlarga turli omillar ta'sir ko'rsatsa-da, sanoat ishlab chiqarish faoliyati asosiy sabablardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Sanoat tarmoqlarida

foydalaniladigan yoqilg'ilar, ayniqsa ko'mir, neft va tabiiy gazning yoqilishi natijasida atmosferaga katta miqdorda issiqxona gazlari chiqariladi. Bu esa atmosfera tarkibining buzilishiga, issiqxona effektining kuchayishiga va iqlim muvozanatining o'zgarishiga olib keladi. Shu bois, sanoat ishlab chiqarish bilan iqlim o'zgarishlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy jihatdan tahlil qilish, uning salbiy ta'sirlarini kamaytirish yo'llarini izlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda faqat issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan siyosat yetarli bo'lmay, balki iqlim o'zgarishiga moslashuv (adaptatsiya) choralari huquqiy jihatdan mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham iqlim o'zgarishi muammosini hal etishda xalqaro majburiyatlarni o'z zimmasiga olib, milliy ekologik siyosatni takomillashtirib bormoqda. Xususan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqlim o'zgarishiga moslashuv choralari kuchaytirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Shu nuqtayi nazardan, iqlim o'zgarishiga moslashuv siyosatining ekologik-huquqiy jihatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb hisoblanadi.

Metodologiya

Mazkur tadqiqot jarayonida iqlim o'zgarishiga moslashuv siyosatining ekologik-huquqiy jihatlarini o'rganishda kompleks ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Xususan, tadqiqotda umumilmiy va maxsus huquqiy tadqiqot metodlari qo'llanildi. Avvalo, tahlil va sintez metodlari yordamida iqlim o'zgarishiga moslashuv tushunchasi, uning ekologik va huquqiy mazmuni nazariy jihatdan o'rganildi. Mantiqiy tahlil orqali ekologik-huquqiy normalarning iqlim siyosatidagi o'rni aniqlab berildi. Shuningdek, qiyosiy-huquqiy metod asosida xalqaro ekologik huquq normalari va O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlar tahlil qilindi. Bu metod iqlim o'zgarishiga moslashuv sohasida ilg'or xalqaro tajribalarni aniqlash va ularni milliy huquq tizimiga tatbiq etish imkoniyatlarini baholashga xizmat qildi. Tadqiqot davomida normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish metodi orqali O'zbekiston Respublikasining ekologiya va iqlim siyosatiga oid qonunlari, Prezident farmonlari hamda xalqaro shartnomalar o'rganildi. Bundan tashqari, ilmiy adabiyotlar va statistik ma'lumotlarni o'rganish metodi yordamida iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari va moslashuv choralari samaradorligi baholandi. Mazkur metodologik yondashuvlar tadqiqot mavzusini har tomonlama va tizimli o'rganishga, ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga imkon yaratdi.

Tadqiqot natijalari

Turli mamlakatlarning konstitutsiyaviy-ekologik normalarining qisqacha tahlilini boshlar ekanmiz, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat ekologik siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, ularni normativ-huquqiy hujjatlarda yanada aniqlashtirish hamda qonunni qo'llash madaniyati ekologik barqaror rivojlanishga imkon berishini yana bir karra tasdiqlaydi. Xuddi shuningdek, qiyosiy tahlil ko'rsatganidek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan asosiy ekologik-huquqiy normalar eng ilg'or xorijiy davlatlar tajribasiga mos bo'lib, mamlakatimizda barqaror rivojlanishni ta'minlashga, atrof muhit musaffoligini saqlashga, tabiatni hamda aholi salomatligini muhofaza qilishga xizmat qilmoqda ¹. 2023-yilgi O'zbekiston Konstitutsiyasida ekologik xavfsizlik davlatning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilandi. Konstitutsiyada eko tizimni himoya

¹ [Atrof-muhit holati to'g'risida milliy ma'ruza: O'zbekiston](#)

qilish va tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha qat'iy talablar qo'yilishi bilan birga, atrof-muhitga zarar yetkazgan shaxslar yoki tashkilotlar uchun javobgarlikni belgilash bo'yicha ham yangi normalar ishlab chiqilgan. Misol sifatida, 1995-yil 1-aprelda kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining VIII bobi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikka bag'ishlanganligini keltirishimiz mumkin.² Ekologik huquqni buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish, ekologik jinoyatlarni oldini olish va atrof-muhitni muhofaza qilishga bo'lgan qat'iy yondashuvni ta'minlashning samarali mexanizmlari yaratilgan. Shuningdek, O'zbekiston Konstitutsiyasining yangi tahriri atrof-muhitni himoya qilishga oid kuchli huquqiy kafolatlar yaratdi.³ Bu kafolatlar ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiatni asrash va barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlash borasidagi davlatning majburiyatlarini yanada mustahkamladi. Ekologik muhofaza qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar O'zbekistonning kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega, bu jarayon jamiyatning yashash sharoitlarini yaxshilash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Ekologik siyosat yangi O'zbekistonning kun tartibida muhim o'rin tutadi. Vazirlik faoliyatini takomillashtirish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish chora tadbirlari, iqlim o'zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurashish bo'yicha harakatlar, daraxtlarning kesilishiga moratoriy, toza «yashil» energiyani joriy etish, qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish, «yashil» transport infratuzilmasini rivojlantirish, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tarmog'ini kengaytirish, ekotizimlarni tiklash va bioxilma-xillikni saqlash, cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish, ekologik qonunchilikni xalqaro standartlar asosida unifikatsiya qilish, sohaga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari ijobiy tendentsiyalarni namoyon etmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan «Yashil Makon» tashabbusi chinakam umummilliy loyihaga aylanib ulgurdi.⁴ Shuningdek, Orol inqirozi oqibatlarini yumshatish, chang bo'ronlariga qarshi kurashish, Orolbo'yida ijtimoiy ekologik vaziyatni barqarorlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish haqidagi tashabbusi bo'yicha BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi. Bu, Orolbo'yi mintaqasida qulay muhitni ta'minlash, institutsional asoslarni rivojlantirish va «yashil» transformatsion o'zgarishlarni rivojlantirish uchun zamin bo'ldi. Bundan tashqari, yuzaga kelayotgan ekologik muammolarning transchegaraviy xususiyatini inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining navbatdagi 78-sessiyasida „ Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: umumiy farovonlik yo'lida hamjihatlik” rezolyutsiyasi qabul qilindi.⁵ Bunga qo'shimcha qilib, BMT ning iqlim o'zgarishi to'g'risidagi asosiy konvensiyasi hisoblanmish „RKIK Konvensiyasi” ni keltirishimiz mumkin hamda ushbu Konvensiyaning asosiy maqsadi va tomonlar konferentsiyasi qabul qilishi mumkin bo'lgan barcha tegishli huquqiy hujjatlar Konvensiyaning tegishli qoidalariga muvofiq atmosferadagi issiqxona gazlari kontsentratsiyasini iqlim tizimiga

² [22.09.1994. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi](#)

³ [30.04.2023. O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi](#)

⁴ [PF-90-сон 30.05.2025. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida hamda o'rmonlarni boshqarish tizimida islohotlarni izchil davom ettirish, yashil hududlarni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida](#)

⁵ [Ўзбекистон Президенти БМТ Бош Ассамблеясининг 78-сессиясида нутқ сўзлади](#)

xavfli antropogen ta'sir ko'rsatmaydigan darajada barqarorlashtirishga erishishdir. Ushbu darajaga ekotizimlarning iqlim o'zgarishiga tabiiy moslashishi, oziq-ovqat ishlab chiqarishni xavf ostiga qo'ymaslik va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun etarli vaqt ichida erishish kerak.⁶ Xalqaro doirada qabul qilingan Parij kelishuvida ham bir qancha ekologik muammolar va ularni yechish uchun a'zo davlatlarga ko'plab majburiyatlar yuklangan. Jumladan, 2021-yilda O'zbekiston Parij kelishuvi bo'yicha o'zining miqdoriy majburiyatlarini oshirdi va 2030-yilga borib YaIM birligiga to'g'ri keladigan issiqxona gazlarining solishtirma emissiyasini avval ko'zda tutilgan 10 foiz o'rniga 2010 yil darajasidan 35 foizga kamaytirishni ko'zlagan.⁷ Parij kelishuvi bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish uchun O'zbekiston iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yoqilg'i- energiyani tejash, ishlab chiqarish quvvatlari va energiya ko'p iste'mol qiluvchi tarmoqlarni modernizatsiya va yangilashga, elektr tarmoqlarida yo'qotishlarni kamaytirish, qurilishda energiya tejoychi texnologiyalarni qo'llash, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan (quyosh energiyasi, quyosh kollektorlari, kichik gidroelektr stansiyalar, biogaz qurilmalari, shamol turbinalari va boshqalar) foydalanishni keng ko'lamda oshirish, qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va boshqalarga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi bir qator qonun hujjatlarini qabul qildi. Yurtimizning iqlim o'zgarishiga moslashish jarayoni shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistondagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning hozirgi holati va ushbu sohadagi zamonaviy tendensiyalar tahlillari so'nggi yillarda mamlakatda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning soni va maydoni ortib bormoqda. O'rmon sohasida ham islohotlar olib borilmoqda, natijada mamlakatda o'rmonzorlar soni sezilarli darajada ortdi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi yerlarini o'zlashtirish va yer usti suvlarini qayta taqsimlash, yaylov chorvadorligi, energetika va tog'-kon sanoatining rivojlanishi, tog'li hududlarda esa, infratuzilma va aholi punktlarining o'sishi kabi antropogen omillarning hayvonot va o'simlik dunyosining xilma-xilligiga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri doimiy bo'lib qolmoqda yoki ortmoqda. Shu o'rinda aytib o'tishimiz lozimki, 2030-yilgachaga bo'lgan uzoq muddatli istiqbolda mamlakat energiya tejaydigan va ekologik xavfsiz texnologiyalar, shuningdek, iqlim dasturlarini moliyalashtirish uchun resurslarni ilgari surish orqali 2030-yilga borib YaIM birligiga IG tashlamalarini 2010-yilga nisbatan 35 foizga qisqartirish bo'yicha majburiyatlari belgilangan. Oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish iqlim o'zgarishiga nisbatan odamlar, turmush tarzi va ekotizimlarni, shuningdek iqtisodiy tarmoqlarni, ayniqsa, iqtisodiy barqarorlik va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydigan qishloq xo'jaligining suv ta'minotini himoya qilishga qaratilgan uzoq muddatli global javobning asosiy tarkibiy qismlari sanab o'tildi.⁸

Iqlim o'zgarishi – asosiy ko'rsatkichlar va tendensiyalar ⁹

⁶ [Рамочная конвенция Организации Объединенных Наций об изменении климата — Конвенции и соглашения — Декларации, конвенции, соглашения и другие правовые материалы](#)

⁷ [O'zbekiston Parij kelishuv majburiyatlariga qanday erishishi mumkin | United Nations Development Programme](#)

⁸ [Uzbekistan Updated NDC 2021 EN.\(page 17\).pdf - Yandex Documents](#)

⁹ [Atrof-muhit holati to'g'risida milliy ma'ruza 55-bet: O'zbekiston](#)

Ko'rsatkich	Uzoq muddat (10 yil)	O'rtacha muddat (3 yil)	Izohlar
Issiqxona gazlari tashlamalari	○ Barqaror	○ Barqaror	1990–yildan 2017–yilgacha bo'lgan davr uchun umumiy tashlamalarning o'sishi atigi 6,7% ni tashkil etdi.
O'rtacha yillik harorat	⊖ Salbiy	Ahamiyatsiz	1880–2016–yillardagi o'rtacha yillik harorat 13,2 S dan 14,8 C gacha ko'tarildi.
Maksimal havo harorati 40° dan yuqori bo'lgan kunlarning o'rtacha ko'rsatkichi soni	⊖ Salbiy	⊖ Salbiy	So'nggi 5 yilda o'rtacha hisobda 5–7 kun, Orolbo'yi va Amudaryoning quyi oqimida esa 12–17 kun.
Muzliklarning umumiy hajmi	⊖ Salbiy	Ahamiyatsiz	1957–2010–yillar uchun Pskom daryo havzasida ko'rsatkich 24,3 foizga, Qashqadaryo daryo havzasida – 67,4 foizga, Surxondaryo daryo havzasida – 40,1 foizga kamaydi.

Shunday ekan, O'zbekistonda ham, xorijda ham o'tkazilgan «atrof-muhit va salomatlik» munosabatlariga oid olib borilgan ko'plab tadqiqotlar atrof-muhitning ifloslanishi aholi salomatligiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatmoqda. Maqolamizda, davom etayotgan sa'y-harakatlardan dalolat beruvchi va keyingi harakatlarga ilhomlantiradigan asosiy chora-tadbirlarga oid misollar keltirilgan. Rivojlanishning ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlaridagi muvozanat O'zbekistonning atrof muhit va aholi salomatligini muhofaza qilishdagi asosiy vazifasidir. Aholining farovonligi ekologik, sanitariya-epidemiologik holat nuqtayi nazaridan fuqarolarning sog'lig'i va toza atrof-muhitga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu ifloslangan atrof-muhitning salomatlik va farovonlikka ta'sirini tushunishni talab etadi.

XULOSA

Dunyo bo'ylab biz kuzatayotgan qurg'oqchilik, o'rmon yong'inlari va jazirama to'lqinlar bir-biri bilan bog'liq bo'lgan iqlim va tabiat inqirozlarining alomatlaridir. Mazkur maqolada atmosfera havosining holatini yaxshilashga qaratilgan sa'y-harakatlar va chora tadbirlar to'g'risida ma'lumot taqdim etilgan. Shu bilan birga, energiya samaradorligini oshirish va sanoat ishlab chiqarishida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo'yicha sa'y-harakatlarni rag'batlantirishga oid chora-tadbirlarning qonunchilik bazasini mustahkamlash kabi institutsional xarakterdagi chora-tadbirlarni ham nazarda tutish zarur. O'zbekiston atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish sohasidagi ko'plab xalqaro konvensiyalar, shuningdek, protokol, bitim va anglashuv memorandumlarining ishtirokchisi hisoblanadi. O'zbekiston 2030-yilgacha bo'lgan davrda Parij kelishuvi doirasida issiqxona gazlari tashlamalari bo'yicha o'z majburiyatlarini yangiladi va mustahkamladi. Shu bilan birga, Orolbo'yi mintaqasida bioxilma-xillikni saqlash, ekotizimlarni tiklash, ozon qatlamini muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish bo'yicha turli tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, aholining sog'lom ovqatlanishi va toza suvdan foydalanishini ta'minlash bo'yicha strategiya va dasturlar mavjud. O'zbekiston mintaqaviy darajada Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlari bilan birgalikda Orol dengizi mintaqasida barqaror

rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun zamonaviy energiya va resurslarni tejaydigan va issiqxona gazlari tashlamalari kam bo'lgan texnologiyalar, shuningdek, bioxilma-xillikni muhofaza va monitoring qilish dasturlari va platformalaridan foydalanish hamda joriy etish bo'yicha o'zaro manfaatli ikki tomonlama va mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish ustida ish olib borayotganligini kuzatish mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Atrof-muhit holati to'g'risida milliy ma'ruza: O'zbekiston
2. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
3. Updated nationally determined contribution 2021
4. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida hamda o'rmonlarni boshqarish tizimida islohotlarni izchil davom ettirish, yashil hududlarni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Prezident Farmoni
5. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi
6. Iqlim o'zgarishi bo'yicha O'zbekistonning milliy hissasi (NDC)
7. O'zbekistonlik ekolog-huquqshunos olimlar maqolalari (Huquq, Yuridik fanlar jurnallari)